

MATYOQUB QO'SHJONOVNING ILMIY MEROSIDA MAHORAT MASALALARI

Usmonaliyeva Azizaxon Xamidjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi

3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi taraqqiyotida Matyoqub Qo'shjonovning o'rni hamda uning ilmiy merosida mahorat masalalarining yorqin talqini tahlil qilinadi. Olimning adabiy jarayonga olib kirgan ilmiy izchilligi, adabiy obraz va xarakter muammolarini ochib berishdagi yondashuvlari, A. Qodiriy va A. Qahhor ijodini tadqiq etishdagi yangiliklari yoritilgan. Shuningdek, Qo'shjonovning adabiy tanqidning ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan qarashlari hamda adabiyotshunoslikdagi tadqiqot metodlari maqola markazida turadi. Maqola olimning ijodiy uslubini, badiiy talqin mahoratini hamda o'zbek adabiy tanqidchiligiga qo'shgan hissasini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Matyoqub Qo'shjonov, adabiy tanqid, adabiyotshunoslik, mahorat masalalari, badiiy tahlil, A. Qodiriy, A. Qahhor, syujet, kompozitsiya, xarakter, ilmiy meros.

ABSTRACT

This article examines the role of Matyoqub Qo'shjonov in the development of Uzbek literary studies and criticism, focusing on the issues of artistic mastery reflected in his scholarly legacy. The study highlights Qo'shjonov's contribution to establishing scientific consistency in literary analysis, his approach to interpreting literary characters and artistic techniques, as well as his innovative research on the works of prominent writers such as Abdulla Qodiriy and Abdulla Qahhor. The article also explores his views on enhancing the impact of literary criticism and the methodological foundations of his analytical works.

Overall, the paper reveals Qo'shjonov's unique style, interpretive mastery, and significant contribution to Uzbek literary criticism.

Keywords: Matyoqub Qo'shjonov, literary criticism, literary studies, artistic mastery, textual analysis, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, plot, composition, character, scholarly legacy.

Matyoqub Qo'shjonov O'zbek [adabiyotshunosi](#) va munaqqidi. 1918-yil 5-mayda hozirgi [Turkmaniston](#) Respublikasining [Toshhovuz viloyati](#) Hallang qishlog'ida tug'ilgan. [Filologiya](#) fanlari doktori, [O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining](#) a'zosi, [O'zbekiston Respublikasi fan arbobi](#), Hamza nomidagi Davlat mukofoti laureati.

30-yillarning ikkinchi yarmida Toshhovuzdagi o'qituvchilar institutida o'qigan. 1941–1945-yillarda urushda qatnashgan, mergan bo'lgan. 1945–1950-yillarda [O'rta Osiyo Davlat universiteti](#) filologiya fakultetida o'qigan, imtiyozli diplom olgan. 1950–1954-yillarda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo'mitasi apparatida ishlagan. 1954–1957-yillarda Markaziy Komitet qoshidagi ijtimoiy fanlar akademiyasi aspiranturasida o'qidi. 1957–1960-yillarda SAGU filologiya fakultetida o'qituvchi bo'ldi. 1960-yildan O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, direktor, bo'lim boshlig'i bo'lib ishlagan.

Matyoqub Qo'shjonov 40 dan ortiq ilmiy, adabiy-tanqidiy, badii, tarixiy biografik xotira kitoblar muallifi. XX asrda yashagan taniqli yozuvchilar, eng muhim badiiy asarlar haqida olim risolalar, adabiy portretlar, tanqidiy ocherklar yozdi. [Abdulla Qodiriy](#), [Oybek](#), [Abdulla Qahhor](#) ijodi talqini va tahlili olim faoliyatining asosidir. Matyoqub Qo'shjonov o'nlab o'ta jiddiy, tahliliy taqrizlar muallifi.

Olim o'zbek adabiyotshunoshligi va tanqidchiligiga ilmiy izchillik olib kirdi. U xarakter muammosiga bog'liq holda [syujet](#), [kompozitsiya](#), [konflikt](#), badiiy til haqida ilmiy-nazariy tadqiqotlar yaratdi. Mustaqillik davrida Matyoqub Qo'shjonov [Abdulla Qodiriy](#), [Abdulla Oripov](#) ijodi haqida tadqiqot yaratdi. Yangi sharoitda bir qancha asarlarni yangicha talqin va tahlil qildi.

Matyoqub Qo'shjonov adabiy asar tahliliga kirishar ekan, juda ko'p hollarda asarlarning qisqacha mazmunini keltirish va tahlilini asar mazmunini hikoya qilish tamoyillari asosida olib boradi. Munaqqid bu haqida shunday yozadi: „Tanqidchilarimiz obrazlarni tanqidiy yo'l bilan qayta tiklash primoyini egallab oldilar. Yozuvchi badiiy asar yaratib, kitobxonni o'z g'oyasiga bir marta sherik qilsa, tanqidchi o'sha asarni tahlil qila turib, asar g'oyasiga, estetik qimmatiga kitobxonni ikkinchi bor sherik qiladigan bo'ladi. Shu yo'l bilan tanqidchi asarning ta'sir kuchini oshiradigan, adabiyotning kuchiga kuch qo'shadigan bo'ldi”.

O'zbek tanqidchilari orasida A.Qodiriyning yozuvchilik san'ati, mahoratini o'ziga xos qirralarini ilk bor ochish baxti ham M.Qo'shjonovga nasib etdi. U „Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati” asarida „O'tkan kunlar” romanini „qayta yaratib” nozik did bilan tahlil qildi. A.Qodiriyning xarakter yaratish mahorati, xarakterning shakllanish jarayonini ko'rsatishdagi „sir saqlash” san'atini birinchi bo'lib M.Qo'shjonov ko'ra oldi. Tadqiqotda A.Qodiriyning Oybek, A.Qahhor ijodiga xos bo'lmagan „voqealarni sirli bayon etish” san'atini ko'rsatishga keng o'rin berilgan. Adabiyotshunos A.Qodiriy badiiy mahoratining qirralarini asardagi asosiy obrazlar – Otabek va Kumush xarakteri orqali ochishga intiladi. Buni muallifning asar muqaddimasidagi ushbu so'zlari ham tasdiq etadi: „Romanning bosh g'oyasi asosan yetakchi obrazlarda ifodalangani uchun bu obrazlarning yaratilishi to'g'risida ko'proq to'xtash foydalidir. Chunki bu masala yozuvchi san'atini belgilovchi omildir”.

Bugungi qahhorshunoslikni M.Qo'shjonov ijodisiz tassavvur etish qiyin. U A.Qahhor haqidagi tadqiqotlarida adibning barcha asarlari, estetik tamoyillari, keng planda, yangicha fikrlar bilan yangicha uslubda tahlil qilindi. 1970-yil esa bu adib haqida „Hayot va nafasat” kitobi chop etildi. Bu asarida olim adibning hikoyanavislik san'ati va dramatik asarlarini chuqur tahlil etadi. „Abdulla Qahhor ijodiga satira va yumor” asarida yozuvchining hajviy mahoratini tadqiq etadi. Bu xildagi ilmiy ishlarning fazilatlaridan biri o'zbek adabiyoti vakillarining o'ziga xos ijodiy individualligini va original qiyofasini ayrim holda yoritish imkonini beradi.

M.Qo'shjonov adabiyotimizning faol tashviqotchisi, adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlarining targ'ibotchisidir. „Adabiy tanqid ham ixtiro qiladi, ixtiro qilingan talantlarni ardoqlaydi“. M.Qo'shjonovning shiorlaridan biri ana shu. Tanqidchi o'zining bu tamoyiliga doim sodiq holda yashab o'tdi.

ADABIYOTLAR:

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. – T.: «Fan», 1978–1979.
2. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. – T.: «Yangi asr avlodi», 2004.
3. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. – T.: «O'zbekiston», 1993.
4. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – T.: «O'qituvchi», 2002.
5. Fitrat. Adabiyot qoidalari. – T.: «O'qituvchi», 1995.
6. Safarov O. va boshq. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. «Buxoro», 2003.
7. Aliev A. Istiqlol va adabiy meros. – T., 1999.
8. Baldavf I. XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar. – T., 2001
9. Do'stqoraev B. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – T., 1998.
10. Nazarov B. O'zbek adabiy tanqidchiligi. – T., 1979.
11. Rasulov A. Xvdoiylberganov N. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – T., 1989.